

Kodeksning tuzulishiga rioya qilmaslik haqidagi sharhlar	Tushuntirish
<p>AJ tomonidan o‘z faoliyatida Korporativ boshqaruv kodeksining tavsiyalarini qabul qilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni nashr etish to‘g‘risida</p>	<p>Ma‘lumot korporativ ma‘lumotlarning yagona portali va kompaniyaning veb-saytida, e‘lon qilindi, fond birjasi veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida Jamiyatning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ma‘lumotlar nashr etilmadi, chunki aksiyadorlik jamiyatida bitta aksiyador mavjud va aksiyalarni sotish rejasi yo‘q, shuning uchun fond birjasida ro‘yxatga olishning hojati yo‘q.</p>
<p>Axborotni mahfiy ma‘lumotlar va tijorat sirlari sifatida tasniflashning aniq mezonlarini belgilash to‘g‘risida</p>	<p>Axborotni mahfiy ma‘lumot va tijorat siri sifatida tasniflashning aniq mezonlarini amalga oshirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda va yaqin kelajakda tasdiqlanadi.</p>
<p>Boshqa korxonalarini boshqarish organlarida AJ vakillari uchun ovoz berish tartibini belgilash to‘g‘risida</p>	<p>Kuzatuv kengashi Ijroiya organiga boshqa korxonalarining boshqaruv organlarida AJ vakillari uchun ovoz berish tartibini ishlab chiqishni buyurdi.</p>
<p>Aksiyadorlarga elektron pochta orqali ovoz berish imkoniyatini yaratish to‘g‘risida (elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda), shuningdek videokonferensaloqa rejimida umumiy yig‘ilish o‘tkazish to‘g‘risida</p>	<p>Ayni paytda aksiyadorlarga elektron pochta orqali ovoz berish (elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda), shuningdek videokonferensaloqa orqali umumiy yig‘ilishni o‘tkazish imkoniyatlarini taqdim yetishni nazarda tutgan holda, Jamiyatning ichki tartib qoidalariga o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.</p>
<p>Kreditorlik va debitorlik qarzlarni kamaytirish bo‘yicha ko‘rilgan choralar to‘g‘risida</p>	<p>Oldingi hisobot davriga nisbatan kreditorlik va debitorlik qarzlarning o‘shishi ish hajmining oshishi, shuningdek, xizmatlarning mavsumiyligi bilan bog‘liq. Kreditorlik va debitorlik qarzlarni kamaytirish bo‘yicha ishlar doimiy ravishda olib boriladi</p>